

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.Tuychiev	
Chet tilini o'qitishda talabalarning tanqidiy fikrlash va so'zlashish malakalarini rivojlantirish bo'yicha debatlar tashkil etish	462
M.Zohidova	
Madaniyatlararo muloqotni ingliz tili darslarida video vazifalar orqali rivojlantirish.....	466
B.Yunusova	
Kombinator leksikografiya – tilshunoslikning nazariy va amaliy asosi.....	470
Z.Alimova	
Navoiyning “Saddi iskandariy” asaridagi forscha-tojikcha so'zlarning semantik jihatdan guruhlanishi	475
F.Yuldasheva	
Zamonaviy tilshunoslikda xushmuomalalik tadqiqi	480
J.Djamolov	
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nuqtai nazaridan tilni rivojlantirish masalalari.....	484
F.Xalimova	
Badiiy konseptlar tipologiyasi	490
D.M.Xoshimova	
Tarjimada xarakter psixologiyasini aks ettiruvchi qiyosiy vositalar tarjimalari	494
M.A.Hojiyeva	
Mustaqil ta'lim vositasida bo'lajak filolog mutaxassislarning terminologik kompetentligini rivojlantirish	497
Sh.S.Irgasheva	
Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlari	502
G.M.Mamadjanova	
Konstantalarni asosiy lingvokulturologik birliklar sifatida o'rganish	507
V.A.Giyosova	
Murojaat birliklarining ijtimoiy-lisoniy tahlili	512
Z.S.Paziljanova	
Madaniyatlararo muloqotda muloqot modellari	517
A.A.Haydarov, Z.T.Yadgarova	
Ritm, qofiya, intonatsiya	520
I.T.Hojaliyev, M.Sh.Xolmatov	
Xotira matnlaridagi polisemantik so'zlarning semantik-strukturasi	524
	FANIMIZ FIDOYILARI
SHARIFAXON ISKANDAROVA	529

MADANIYATLARARO MULOQOTDA MULOQOT MODELLARI
МОДЕЛИ КОММУНИКАЦИИ В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ
MODELS OF COMMUNICATION IN INTERCULTURAL COMMUNICATION

Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna¹

¹Paziljanova Zulfiya Sabirjanovna

– Qo‘qon davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, ped.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya

Globalashuv jarayoni dunyo davlatlariga tobora ko‘proq o‘z ta‘sirini ko‘rsatayotganligi sababli, hozirgi kunda chet tillarni o‘qitishda madaniyatlararo muloqot masalalariga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Talabalarga madaniyatlararo muloqotni o‘rgatishda ularning muloqot modellari va ularning komponentlari bilan tanishtirish oliy ta‘lim muassasalarida madaniyatlararo muloqot darslarida o‘ziga xos dolzarblilik kasb etadi. Ushbu maqolada muloqot modellari va ularning asosiy tarkibiy qismlari ko‘rib chiqiladi.

Аннотация

В связи с тем, что процесс глобализации все больше затрагивает страны мира, особое значение придается вопросам межкультурной коммуникации при обучении иностранным языкам. При обучении студентов межкультурной коммуникации знакомство с моделями коммуникации и их компонентами приобретает особую актуальность на занятиях по межкультурной коммуникации в высших учебных заведениях. В данной статье рассматриваются коммуникативные модели и их основные составляющие.

Abstract

Because the process of globalization is increasingly affecting the countries of the world, special importance is attached to the issues of intercultural communication in teaching foreign languages. When teaching students about intercultural communication, familiarity with communication models and their components is of particular relevance in the classes on intercultural communication in higher educational institutions. This article discusses communication models and their main components

Kalit so‘zlar: muloqot, model, kanal, ma‘lumot, jo‘natuvchi, signal, shovqin, ortiqchalik, holat, ishtirokchi, samara, faoliyatning borishi.

Ключевые слова: коммуникация, модель, канал, информация, отправитель, сигнал, шум, избыточность, сцена, участник, эффект, ход действия.

Key words: communication, model, channel, information, sender, signal, noise, redundancy, scene, participant, effect, action.

KIRISH

Muloqot, ko‘pchilik olimlarning ta‘kidlashicha, ikki yoki undan ortiq shaxslarning o‘zaro munosabatga kirishishi, xabarni uzatish, fikr va ma‘lumotlar almashinuvidir [1]. Muloqotni qanday tadqiq qilish mumkin? Muloqot tahliliga oid bir nechta yondashuvlar mavjud. P.Bullning ishlarida muloqotga yondashuvlarning qisqacha tahlili bayon qilingan [2]. Ularning ko‘pchiligi uchun umumiy xususiyat muloqotni tarkibiy qismlarga ajratish, ya‘ni, muloqot modellarini yaratishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Muloqot modellarining eng mashhurlaridan biri — amerikalik siyosat va targ‘ibot tadqiqotchisi **Garold Lassvell modeli** hisoblanadi: *Who says what to whom in which channel with what effect?* G.Lassvell modeli klassik modellar sirasiga kiradi. O‘z mohiyatiga ko‘ra, G.Lassvell muloqotni 5 komponentga bo‘ladi, u jo‘natuvchi yoki adresant (*Who?*), xabar (*what?*), qabul qiluvchi yoki adresat (*to whom?*), kanal (*in which channel?*) va oqibat yoki samara (*with what effect?*). Bu komponentlarga muvofiq muloqotning tadqiqot sohalari aniqlanadi: muloqotni boshqarish (jo‘natuvchi faoliyati), muloqot mazmuni (xabar), kommunikativ muhit (kanal), auditoriya (qabul qiluvchi), kommunikativ ta‘sir (effekt).

40 — yillar yakunida amerikalik matematiklar **Klod Shennon** (Claude E. Shannon) va **Uorren Uiver** (Warren Weaver) lar tomonidan taklif qilingan **muloqot modeli** ham uzoq muddat mashhur bo‘ldi. Ushbu modelda 5 ta asosiy element mavjud:

1. **Ma‘lumot manbasi**, u jo‘natiladigan ko‘p sonli xabarlar ichidan birini tanlab oladi. Xabar tanlovining tasodifiy darajasi entropiya deb nomlanadi.

2. **Jo‘natuvchi**, u ma‘lum miqdorda xabarga ta‘sir ko‘rsatib, aloqa kanali orqali uzatiladigan signalni ishlab chiqadi. **Signal** deganda axborot xabarini moddiy jihatdan qamrab oluvchi fizik jarayon

hamda ma'lum fizik holat va jarayonning mazmunli tarkibi, masalan, svetofor signallari, ovozli ogohlantiruvchi signallar va h.k tushuniladi. Verbal muloqotda signal — bu adresat nutq organlari tomonidan yaratiladigan va adresant eshitish organlari tomonidan qabul qilinadigan ovozli tebranishlardir.

3. **Kanal** — jo'natuvchidan qabul qiluvchiga signal uzatish uchun qo'llaniladigan vosita.

Kanallarning quyidagi turlari farqlanadi:

1. *Muloqotning verbal kanali* — u orqali tabiiy til yordamida kodlangan ma'lumot uzatiladi;

2. *Paraverbal kanal* — ovozli modulyatsiyalar (ohang o'zgarishi), ular ma'lumotni so'zlovchining xabar mazmuniga va adresantga munosabati haqidagi ma'lumotni uzatadi, ma'lumotning u yoki bu komponentlarini farqlaydi;

3. *Muloqotning noverbal kanallari*:

- vizual (optik) kanal,

- audial (eshitish) kanali,

- olfaktorli (hid bilish) kanali,

- taktil kanal,

- ta'm bilish kanali,

- proksematik kanal (suhbatdoshlarning bir-biriga nisbatan joylashuvi, ular orasidagi masofa),

- kinetik kanal (poza, jestlar, mimika).

4. **Priyomnik** (qabul qiluvchi vosita) — u signalni xabarga aylantiradi.

5. Qabul qiluvchi — xabar yo'naltirilgan shaxs.

Bu terminlar bilan bir qatorda, Shennon shovqin va ortiqchalik tushunchalarini kiritgan.

Shovqin — xabarga putur yetkazadi, uning yaxlitligi, butunligi va priyemnik tomonidan ma'lumotni qabul qilish imkoniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Verbal muloqotda nutqdagi xatolarning ko'pligi, kuchli aksent va shu kabilar shovqin hisoblanadi.

Ortiqchalik — xabar elementlarini muloqot muvaffaqiyatsizligini bartaraf etish maqsadida takrorlash, shovqinga qarshi vosita. Ortiqchalik xususiyatlari odatda tabiiy tillar misolida namoyish qilishadi. Barcha til ishoralarining taxminan yarmi ortiqcha sanaladi: matn so'zlarining yarmini tushirib qoldirish yoki radioeshittirishlardagi so'zlarning yarmini o'chirib tashlash mumkin, lekin shunda ham ularni tushunish ehtimoli saqlanib qoladi.

Yakobson modeli. Ushbu model mashhur rus tilshunosi Roman Yakobsonning "Lingvistika va she'riyat" maqolasida taklif qilingan. Yakobsonning modeliga ko'ra muloqot yoki nutqiy hodisada adresant va adresat ishtirok etadi, birinchisidan ikkinchisiga kodlar yordamida yozilgan xabar yo'naltiriladi. Yakobson modelida kontekst xabarning mazmuni u uzatadigan ma'lumotlarga, aloqa tushunchasi esa muloqotning tartibga soluvchi jihatiga bog'liq. Har bir muloqot komponenti ma'lum kommunikativ (lingvistik) funksiyaga to'g'ri keladi, uning bajarilishi ushbu komponentga bog'liq.

Kontekst

Xabar

Adresant ----- Adresat

Aloqa

Kod

"Adresant xabarni adresatga jo'natadi. Xabar o'z vazifalarini bajara olishi uchun, quyidagilar zarur: u haqda gap borayotgan *kontekst*, boshqacharoq aytganda "referent"; kontekst adresat tomonidan qabul qilinishi kerak va yo verbal bo'lishi yoki verballashuvga imkon berishi kerak;

kod (code) jo'natuvchi va qabul qiluvchi (yoki boshqacha aytganda, kodlovchi va koddan chiqaruvchi) uchun butunlay yoki qisman umumiy bo'lgan; va nihoyat, *aloqa* (contact) — muloqot o'rnatish va qo'llab-quvvatlashga imkon yaratadigan jo'natuvchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi jismoniy kanal hamda psixologik aloqa" [3].

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Kod — metatilli funksiya (adresat va adresant kodlarining o'xshashligini aniqlash, kodni tuzatish). Agar so'zlovchi yoki tinglovchi ular bir xil koddan foydalanayotganligini tekshirib ko'rish kerak bo'lsa, unda nutq predmeti kodning o'zi bo'ladi: bu yerda nutq metatilli vazifa, ya'ni izohlash vazifasini bajaradi. "Nimani nazarda tutayotganligingizni unchalik tushunmayapman?" deb so'raydi tinglovchi. So'zlovchi esa shunga o'xshash savolni ta'kidlab, "Nimani nazarda tutayotganligimni tushunyapsizmi?" deb qayta so'raydi... Til o'rganish jarayonida, ayniqsa, bola o'z ona tilini o'zlashtirayotganida shu kabi metatilli operatsiyalar keng qo'llaniladi; afaziya (so'zlash yoki tushunish qobiliyatini yo'qotish) ko'pincha metatilli operatsiyalarga layoqatni yo'qotishda aks etadi [3].

TILSHUNOSLIK

Bu nazariya tanqidchilarining ta'kidlashicha, Yakobson qayd etgan muloqotning barcha funksiyalari aslida kommunikativ funksiyalarning turlarini o'zida aks ettiradi.

Xayms modeli. Muloqotning real faoliyatini o'rganish vaqt o'tishi bilan muloqot modellarining murakkablashuviga olib keldi. Bunga, eng avvalo, muloqot jarayonini kuzatish chog'ida "nutq etnografiyasi" deb ataluvchi tadqiqotlarning paydo bo'lishi sabab bo'ldi. Xorij ilm-fanida muloqot komponentlarining ro'yxatlari keng tarqaldi. Bulardan eng mashhuri Amerika tilshunosi Dell Xayms (Hymes, 1927-2009) tavsiya qilgan ro'yxat bo'lib, uning nomenklaturasi **SPEAKING** akronimini qulay shakllantirib beradi:

- **Scene – sahna (holat):** muloqot akti sodir bo'layotgan umumiy jismoniy sharoitlar va bu sharoitlarda muloqot akti qanday bo'lishi kerakligi haqidagi madaniy tasavvurlar (masalan, auditoriya, necha kishilik, qayerda, rasmiy muloqotmi yoki norasmiy va h.k.).

Participants – ishtirokchilar: xabarni jo'natuvchi (adresant) va qabul qiluvchi (adresat). Muloqotning shunday ommaviy shakllari ham mavjudki, qabul qiluvchi umumiy (masalan, reklamada) yoki guruh tarzida (ma'ruzadagi kabi) bo'ladi.

- **Effekt – yoki natija (samara):** bu yerda muloqot maqsadlari hamda uning taxmin qilingan va real, ko'pincha oldindan ko'rib bo'lmaydigan yakuni farqlanadi. Ma'ruza muhim narsalar haqidagi qiziq hikoya deb rejalashtirilishi, lekin aslida bema'ni narsalar haqidagi zerikarli hikoya bo'lib chiqishi mumkin.

- **Action – faoliyatning borishi:** xabarning shakli va mazmuni. Bu adresant (jo'natuvchi) tomonidan yuborilgan real matn bo'lib, lingvistik vositalar tomonidan rasman qanday bo'lsa, mazmunan ham shunday tasvirlanishi mumkin.

- **Key – kalit:** ham individual, ham holatga, ijtimoiy me'yorlarga asoslangan uslub.

- **Instruments – uskunalar:** bular xabarlarini kodlash va uzatishda ishtirok etuvchi kanallar va kodlar bo'lib, u tizimli lingvistikaning predmeti hisoblanadi.

- **Norms – me'yorlar:** xabarlarini kodlash va sharhlash muloqot me'yorlariga bo'ysunadi – adresant uchun me'yorlar xabarning mazmuni va uni uzatish vositalarining to'plamini aniqlab bersa, adresat uchun kutish to'plamini aniqlab beradi.

- **Genres – janrlar:** xabarlarining turg'un, tipik shakllari. Demak, ma'ruza janri uning mavzusi, strukturasi, ma'lumot uzatish imkoniyatlari, til vositalarini tanlashda ma'lum stilistik cheklashlar va boshqalarni aniqlaydi [4].

XULOSA

Oliy ta'lim tizimida talabalarga madaniyatlararo muloqotni o'rgatishda muloqot modellari va ularning asosiy komponentlari haqida ma'lumot berish, talabalarning muloqot borasidagi nazariy va amaliy bilimlarini boyitib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Usmanova Sh., Rixsiyeva G. Madaniyatlararo muloqot. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2017. – bet 22. (Usmanova Sh., Rikhsiyeva G. Intercultural communication. Study guide. Tashkent, 2017. - page 22.)
2. Bull P. Communication under the Microscope: The Theory and Practice of Microanalysis. L.; N.Y.: Routledge, 2002. P. 6-23.
3. Якобсон Р.О. Лингвистика и поэтика//Структурализм: “за” и “против”: сб.ст. М.: Прогресс, 1975. С.198-202. (Jacobson R.O. Linguistics and poetics // Structuralism: “for” and “against”: collection of articles. M.: Progress, 1975. S.198-202.)
4. Гузикова М.О., Фофанова П.Ю. Основы теории межкультурной коммуникации. Учебное пособие. Екатеринбург, Изд-во. Урал. Ун-та, 2015. стр. 37. (Guzikova M.O., Fofanova P.Yu. Fundamentals of the theory of intercultural communication. Tutorial. Ekaterinburg, Publishing house. Ural. Univ., 2015. p. 37.)
5. Paziljanova Zulfya Sabirjanovna. (2022). INTERCULTURAL COMMUNICATION AS A THEORETICAL AND PRACTICAL SCIENCE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 456–459.
6. Mamadodilovna, M. N. (2021, April). STRATEGIES FOR THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH IN GERMAN. In *Archive of Conferences* (Vol. 22, No. 1, pp. 93-95).
7. Mamadodilovna, M. N. (2022). Einsatz der Kommunikationsstrategien für die Förderung des Sprechens im DaF-Unterricht. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences).
8. S. Haqnazarova. Translation and Literary Influence on The Work of Abdulla Sher. pp. 92-93
9. S.Khakhazarova. The Expression of Nationalism in the work of Abdullah Sher. P.90-92.